Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish.....	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis.....	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня A2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчехра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	
Malaka oshirish jarayonida ta’lim sifatini oshirish masalalari.....	1223
Amanova Durdona Kaxramonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari	1226
Berdiyeva Muhabbat Meliyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda modellashtirishning ahamiyati	1229
Eshbekova Gulbahor	

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	1233
<i>G'afforova Xurriyat Yangiboyevna</i>	
Kimyo fani o'rganuvchilari ongida moddalarning hosil bo'lish jarayonining mazmun-mohiyatini ularning genetikasiga asoslab tushuntirish.....	1238
<i>Jabbarova Dilafruz Bo'riyevna</i>	
Application of Artificial Intelligence-Based Learning Activities for Developing Critical Thinking in Teacher Training	1242
<i>Masharipova Nargiza Otakhonovna, Xudayberganova Madinabonu Qudratovna</i>	
Yuqori malakali darvozabonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati	1246
<i>Maxmudov Azamjon Muxtorovich</i>	
Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
<i>Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'ldiyor Shaxriyor Xusanovich</i>	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqtirish	1254
<i>Piriyazova Sholpan Oteniyazovna</i>	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi	1259
<i>Raxmatov A'zam Ashur o'g'li</i>	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1262
<i>Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni	1268
<i>Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi</i>	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages	1272
<i>Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna</i>	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar	1276
<i>Sharipova Sarvinaz Sayid qizi</i>	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
<i>Usmonova Mohizoda Avazjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati	1283
<i>Xomidova Dilorom Abduraxmonovna</i>	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz Egamqulovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi	1289
<i>Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi</i>	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России	1293
<i>Суярова Айнуф Ибодуллоевна</i>	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
<i>Kilichev Nurulla Abbosovich</i>	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
<i>Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	1303
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
<i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сиббординг": педагогические условия.....	1310
<i>Нумонжонova Фарангиз Комиловна</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining roli	1314
<i>Choriyeva Xurmo Panji qizi</i>	
Ona tili ta'limida o'quvchilarni loyiha ishi asosida baholash metodikasi	1316
<i>Bobodo'stov Yusuf Oydin o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini CALP yondashuvi asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik bosqichlari	1321
<i>Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi</i>	
Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari.....	1325
<i>Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich</i>	



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda disgrafiyaning o'rganish va koreksiyalash	1329
<i>Azimova Aziza Baxtiyorovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari	1333
<i>Mirzayeva Dilafruz</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlilini olib borishda tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1337
<i>Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna</i>	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari	1342
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatning sog'liq va rivojlanishga ta'siri	1346
<i>Ibragimov Xasanboy Abdusalomovich</i>	
Kimyo darslarida raqamli resurslardan (simulyator va virtual laboratoriya) foydalanish metodikasi.....	1349
<i>Ishmanova Zohida Ubaydullayevna, Valeeva Nailya Gennadiyevna</i>	
The Integration of Web Technologies in Language Education	1353
<i>Kadirova Feruza Hikmatullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yangi avlod darsliklaridan foydalanish kompetensiyasi.....	1357
<i>Kosimova Gulloila Mullajonovna</i>	
Evaluation of the Knowledge of a Future Education Teacher on the Methodology of Teaching and the General Features of The Theory of Education.....	1360
<i>Nishonova Munira Yakubjonovna</i>	
Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari	1364
<i>Mamirova Dilorom Tavakulovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida	1367
<i>Meliboyev Tavakkal Turg'unovich</i>	
Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari.....	1371
<i>Mexmonov Ismat Toshpo'latovich</i>	
Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....	1375
<i>Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy immunitet va milliy o'zlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari	1379
<i>Mo'minov Durbek No'monovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil etishda maxsus terapiyalardan samarali foydalanish yo'llari	1383
<i>Niyozova Husnida Obidjon qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna</i>	
Redefining the Teacher's Role in the Age of Artificial Intelligence: Balancing Human and Machine Intelligence in ELT	1386
<i>Nizomov Feruz Raxmon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1389
<i>Nurmonova Zebo Fattaxovna</i>	
Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish.....	1392
<i>O'ktam Nosirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi sensor alaliyali bolalarni eshituv nutqiy idrokini o'stirish texnologiyalari.....	1398
<i>O'zganova Dildora Xolmirza qizi, Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Bolalar uchun tushunarli tilda yozilgan qiziqarli tarixiy hikoyalar, afsonalar va rivoyatlar ularning tasavvurini rivojlantirishda, shuningdek rasmlar va fotosuratlar haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyatga ega	1402
<i>Qodirova Buzulayho Turg'unovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik ta'minoti	1405
<i>Quldashev Murodjon G'aniyevich</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va tamoyillari	1409
<i>Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi</i>	
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablar	1412
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubayevna, Kuandikova Kamila</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning axborot almashuv va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (kompyuter injiniringi yo'nalishi misolida)	1416
<i>Solijanov Muxammad-Ali Omonillo o'g'li</i>	

Bo'lajak ofitserlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati (ingliz tili mashg'ulotlari misolida).....	1419
<i>Sotkulova Dildora Odinabekovna</i>	
Ingliz va o'zbek tillarida zoonimik xususiyatni ifodalovchi maqollarning lingvokulturologik xususiyati	1423
<i>Shaxlo Xalilova, Sug'diyona Sherqulova</i>	
Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish	1427
<i>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida</i>	
Mustaqillik davrida qizlar tarbiyasining pedagogik asoslari va zamonaviy tendensiyalar	1430
<i>Xakimova Nargizaxon Boxadirdjonovna</i>	
Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli	1436
<i>Yunusova Diloramxon Abdumajitovna</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning ijtimoiy-muloqot kompetensiyalari	1440
<i>Aripova Nodira Shuxratovna</i>	
Методы развития устной речи детей дошкольного возраста	1444
<i>Исроилова Шохсанам Учкунжон қизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirish metodikalari	1449
<i>Qodirova Buzulayho Turg'unovna, Asqarova Mohidil Murodilla qizi</i>	
Virtual modellashtirish asosida o'quvchilarning arxitekturaviy loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	1454
<i>Abdullayev A'zamjon Komolxanovich</i>	
Analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda tizimli yondashuvning prinsiplari	1458
<i>Amanova Gulxayo Dilmurod qizi</i>	
O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlashda xalqaro baholash (PISA) dasturlarining roli.....	1462
<i>Axmedova Mastura Maxmudovna, Abdumalikova Zamira Dilmurod qizi</i>	
O'yin faoliyatida erkinlik va maqsadlilik uyg'unligi: ijodiy tafakkurni rivojlantirish omili sifatida.....	1465
<i>Baxriddinova Yulduz Abror qizi</i>	
Incorporating Culture-Sensitive Communicative Tasks in EFL Courses.....	1468
<i>Guzal Ismailova</i>	
Ingliz tilini o'rganish jarayonida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil qilish texnologiyasi	1471
<i>Ibragimova Sevara Baxodirovna</i>	
Masofaviy ta'lim jarayonida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish: imkoniyatlar, cheklovlar va istiqbollar	1474
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Ertayoshda ingliz tilini o'yin va TPR metodlari asosida o'rgatish samaradorligi	1478
<i>Kadirova Nilufar Tursinbayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining individual xususiyatlarini o'rganish	1481
<i>Karayeva Y. X.</i>	
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi.....	1484
<i>Nazarova Mavluda Uktamovna, Botirova Ozoda Baxodir qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda darsni samarali tashkil etishda metoddan foydalanish – ijodiy fikrlashni rivojlantirish	1487
<i>Nazarova Mohigul Akmalovna, Raxmonova Fariza Suxrobovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	1493
<i>O'rinboeva Lolaxon O'ktamovna, Nazarov Ilhomjon Usmanalievich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (Finlyandiya va Singapur tajribasi asosida).....	1496
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida integratsiyalashgan darslarni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish.....	1500
<i>Qodirova Dilshoda Abdunabiyevna</i>	
Ingliz tili mashg'ulotlarida yozuv ko'nikmalarini oshirishning metodik asoslari	1504
<i>Qurbonova Barnoxon</i>	
Ta'lim tizimida marketing	1508
<i>T. Seydemetov</i>	
Xorijiy tillarning o'qitilishida boshqa tillarning roli va o'qitish metodikasi.....	1515
<i>Tashxodjayeva Patima Bakiyevna</i>	



Integrating Social and Linguistic Skills in English Teaching Instruction is the Key to Improving Holistic Language Competence	1518
Zaylobidinova Munira Gulomovna	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kimyo ta'limidagi o'rni	1523
Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi	



AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINING KIMYO TA'LIMIDAGI O'RNI

Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi

Osiyo xalqaro universiteti doktoranti, Buxoro shahri

Annotatsiya: XXI asr – axborot asri sifatida e'tirof etiladi. Bugungi globalashuv jarayonida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyo-tining eng muhim omili bo'lib, uning samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Kimyo fani o'ziga xos murakkabligi, tajriba asosida isbotlanadigan qonuniyatlari bilan boshqa tabiiy fanlardan ajralib turadi. Shu bois, uni o'qitishda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarda chuqur bilim va mustahkam ko'nikma hosil qilishda beqiyos ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kimyo ta'limi, virtual laboratoriya, elektron darslik, interaktiv metod, ta'lim samaradorligi.

Abstract: The 21st century is recognized as the information age. In today's globalization process, the education system is the most important factor in the development of society, and information and communication technologies (ICT) are playing a decisive role in increasing its efficiency. Chemistry is distinguished from other natural sciences by its inherent complexity and experimentally proven laws. Therefore, the use of modern ICT tools in teaching it, along with traditional methods, is of incomparable importance in forming deep knowledge and solid skills in students.

Key words: Information and communication technologies, chemistry education, virtual laboratory, electronic textbook, interactive method, educational effectiveness.

Аннотация: XXI век признан веком информации. В условиях современной глобализации система образования становится важнейшим фактором развития общества, а информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) играют решающую роль в повышении её эффективности. Химия отличается от других естественных наук своей внутренней сложностью и экспериментально подтвержденными закономерностями. Поэтому использование современных ИКТ в её преподавании, наряду с традиционными методами, имеет непревзойденное значение для формирования у учащихся глубоких знаний и прочных навыков.

Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, химическое образование, виртуальная лаборатория, электронный учебник, интерактивный метод, эффективность обучения.

KIRISH

AKT – bu ta'lim jarayonida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va taqdim etish uchun foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalar majmuidir.

1. Kimyo ta'limida AKTning qo'llanishi;
2. Nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi;
3. Murakkab jarayonlarni ko'rgazmali shaklda namoyish qiladi;
4. O'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantiradi;
5. Ilmiy-ijodiy faoliyatga yo'naltiradi.

Kimyo ta'limida AKT vositalari

1. Virtual laboratoriyalar

Kimyo tajribalarining ayrimlari qimmatbaho reagentlarni talab etadi yoki xavfli hisoblanadi. Shu sababli virtual laboratoriyalar (PhET, ChemCollective, Labster) orqali tajribalarni xavfsiz, tezkor va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda bajarish mumkin.

2. Elektron darslik va platformalar

Google Classroom, Moodle, EduPage kabi tizimlar yordamida dars materiallarini elektron shaklda tarqatish test va topshiriqlarni onlayn bajarish. o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

3. Molekulyar modellashtirish dasturlari

ChemDraw, Avogadro, Gaussian kabi dasturlar molekulalarning elektron tuzilishini vizualizatsiya qilish, kimyoviy reaksiyalar mexanizmlarini o'rganishda keng qo'llaniladi.

4. Multimedia vositalari

3D animatsiyalar, videoroliklar, interaktiv taqdimotlar yordamida murakkab nazariy tushunchalar o'quvchilarga sodda va qiziqarli shaklda yetkaziladi.

5. Kimyo ta'limida AKTning afzalliklari

- Didaktik afzalliklar – o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Kimyo ta'limida didaktik afzalliklar – bu kimyo fanini o'qitishda qo'llaniladigan usul, vosita va metodlarning ta'lim jarayonida samaradorlikni oshiruvchi, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka shakllanishiga yordam beruvchi jihatlaridir. Ular kimyo fanining o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.
- Kimyo ta'limining asosiy didaktik afzalliklari:
- Nazariya va amaliyot uyg'unligi, Kimyo darslarida nazariy bilimlar laboratoriya tajribalari orqali mustahkamlanadi. Bu o'quvchilarda bilimning chuqurroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Kuzatish va tajriba asosida o'qitish imkoniyati. Kimyo boshqa ko'plab fanlarga qaraganda ko'proq amaliy tajribalar asosida o'rganiladi. Bu esa o'quvchilarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishi, reaksiya tenglamalarini tuzish, nazariy masalalarni yechish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Tajribalar asosida yangi xulosalar chiqarish esa ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

MAVZUGA OID ADBIYOTLAR SHARHI

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim jarayonining barcha bosqichlariga chuqur kirib kelayotgani kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishda ham muhim o'rin egallamoqda. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kimyo ta'limida raqamli vositalar, virtual laboratoriyalar, onlayn simulyatsiyalar va multimedia resurslaridan foydalanish o'quvchilarning mavzuni tushunishini kuchaytirishi, xavfsizlikni ta'minlashi va o'quv motivatsiyasini oshirishini ta'kidlaydi.

Garrison va Anderson (2003) o'z tadqiqotlarida konstruktivistik o'qitish muhitida AKT vositalari talabanning faol ishtirokini ta'minlashini, masofaviy o'qitishning samaradorligini oshirishini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv kimyo ta'limida virtual amaliyotlar bilan ishlashni qo'llab-quvvatlaydi.

Jong, Linn va Clark (2015) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar kimyoviy jarayonlarni vizuallashtirish (molekulyar model, reaksiya mexanizmlari animatsiyasi) o'quvchilarda abstrakt tushunchalarning shakllanishini kuchaytirishini ko'rsatadi. Ularning fikricha, raqamli simulyatsiyalar real laboratoriya tajribalarini to'ldiruvchi muhim vositadir.

A. Abdullayev (2020) O'zbekiston sharoitida kimyo ta'limiga mo'ljallangan raqamli resurslardan foydalanish o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishini, interaktiv testlar va elektron darsliklar orqali muvaffaqiyat ko'rsatkichlari sezilarli oshganini ma'lum qiladi. U elektron darsliklarni an'anaviy darsliklarga nisbatan ko'p funksiyali va o'quvchi uchun qulay ekanini aytadi.

N.S. Yuldasheva (2021) kimyo laboratoriya mashg'ulotlarida virtual laboratoriyalardan foydalanish xavfli tajribalarni xavfsiz muhitda bajarishga imkon berishini, shuningdek, o'quvchilarni talafotlardan himoya qilishini ilmiy asoslaydi. Shuningdek, u virtual laboratoriyalar dars vaqtini tejalishi va kam resurs talab qilishi bilan ahamiyatli ekanini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Amaliy mashg'ulot", "Tajriba ko'rsatish" va "Laboratoriya ishi" kabi metodlar o'quvchilarda mustahkam bilim va ko'nikma hosil qiladi. O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish. Referat, loyiha, kichik ilmiy izlanishlar va eksperimentlarni topshirish orqali o'quvchilar mustaqil ishlashga o'rganadilar.



1. Tajriba asosidagi ta'lim metodlarining mohiyati

Tajriba asosidagi metodlar – o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni amaliy faoliyat orqali bilim olishga undaydigan usullardir. Bunda o'qituvchi bilim manbai emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi rolini bajaradi.

2. Tajriba asosidagi ta'lim metodlari turlari

- Eksperimental metod – laboratoriya sharoitida yoki tabiatda kuzatish va tajribalar o'tkazish. Masalan, kimyo, fizika, biologiya fanlarida o'quvchilar mustaqil tajriba o'tkazadi.
- Loyihaviy metod – muayyan muammoni hal etish uchun tadqiqot olib borish, tajriba asosida yangi g'oyalarni ishlab chiqish.
- Amaliy mashg'ulotlar – ishlab chiqarish, dala sharoitida yoki kasbiy amaliyot davomida bajariladigan mashg'ulotlar.
- Rol o'ynash va simulyatsiya – real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan mashqlar. Masalan, tarix darsida tarixiy voqeani jonlantirish, iqtisod fanida bozor jarayonlarini modellashtirish.
- Tajriba-sinov metodi – yangi usul, topshiriq yoki mashg'ulotni sinab ko'rish va natijalarini tahlil qilish.

3. Tajriba asosidagi metodlarning afzalliklari

- O'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi.
- Nazariya bilan amaliyot o'rtasida bog'liqlikni ta'minlaydi.
- O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.
- Bilimlar uzoq muddatli va mustahkam bo'ladi.
- Jamoaviy ishlash va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Tajriba asosidagi metodlarning qo'llanilish sohasi

- Tabiiy fanlar (kimyo, fizika, biologiya, geografiya) – tajribalar, kuzatishlar.
- Ijtimoiy fanlar (tarix, huquq, iqtisod) – rol o'yinlari, modellashtirish.
- Kasbiy ta'lim – ishlab chiqarish amaliyoti, laboratoriya mashg'ulotlari.
- Umumiy ta'lim – loyiha ishlari, tadqiqotlar, innovatsion loyihalar.

Pedagogikaning kuzatish metodi ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu metodni qo'llanish jarayoni ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi. Tajribalarning ko'rsatishicha, maqsad asosidagi kuzatuv m a'lum reja asosida yig'ilgan dalillarni haqiqiy tahlil qilish, qiyoslash asosida tashkil etilsagina samarali bo'ladi. Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchunгина emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Odatda, pedagogik kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomilalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari belgilanadi. Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlarining shakllanishi, fikrlash va xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil qiladi hamda tegishli xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi. Bunday kuzatishlar pedagogika fani mazmunining boyishiga sabab bo'ladi.

Suhbat metodi

Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qay darajada to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat metodidan foydalaniladi. Odatda, suhbat metodi maktab o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda suhbat metodini tadbiiq etishdan oldin maqsadli reja tuziladi, amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosa chiqariladi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni bilishi, suhbatdoshining ruhiy holatiga qarab suhbat qila bilishi g'oyat muhimdir.

Bunda:

- 1) suhbat uchun oldindan savol tuzish;



- 2) vaqti va o'tkazish joyini belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni va ularning kasb-korlaridan xabardor bo'lishi;
- 4) suhbat uchun qulay sharoit va erkin suhbatlashish imkonini yaratish;
- 5) mahmadona va bachkana bo'lmaslik;
- 6) suhbatdoshning xarakterini e'tiborga olish;
- 7) suhbat natijalarini darhol tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, kerak bo'lsa qo'shimchalar kiritish va uni maktab hayotiga tatbiq etish pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga egadir

Bolalar ijodini o'rganish metodi

Pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda maktab o'quvchilarining o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Shu sababli yoshlarning turli yozma ishlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari,

she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari bolalar ijodini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Oqibatda, maktab o'quvchilari orasidan yetishib chiqayotgan qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlarini namoyon etish uchun sharoitlar yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o'rganish manbayi ko'p bo'lib, ular: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, ekskursiyalar, sayllar va hokazo.

Test, so'rovnoma metodi

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari ichida yetakchi metod so'rovnoma va test savollardan foydalanishdir. So'rovnoma-anketa (fransuzcha "tekshirish" m a'nosini bildiradi) metodi yaratilgan ilmiyfarazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasbga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

O'zbekiston, ta'bir joiz bo'lsa Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib test metodini maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga tatbiq etdi. Test sinovlaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida o'quvchilarning bilimlarini aniqlash hamda baholashdir. Bunda test savollarini aniq va ravshan tarzda tuzish muhim ahamiyatga ega. Test savollarining o'qi va ularni mazmunan rangbarang qilib tuzilishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi, kelajakni real baholash imkonini beradi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi

Respublikamiz rahbariyatining xalq ta'limi yuzasidan qabul qilingan qaror va yo'l-yo'riqlari asosida maktabda amalga oshirilgan va ayni paytda bajarilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarini hujjatlar orqali aniqlash metodi ham mavjuddir. Maktab hujjatlarini tekshirish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma'lumotlar olinadi. Umuman, maktab hujjatlari deyilganda; o'qituvchi va o'quvchilarning soni va sifati; o'quvchilarning shaxsiy hujjatlari, sinf jumallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tushuniladi. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda o'quvchilarning umumiy miqdori, uning o'sishi yoki kamayish sabablarining tavsifi, o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, sinfda qolishning oldini olish, rag'batlantirish va jazolash choralari, turlariga, maktabning moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

Ular tahlil qilish, hisobotlarni ko'zdan kechirish, to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash, o'quvchilar faolliklarining o'sishi bilan taqqoslash, ilg'or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi hamda joriy etilishi va nihoyat, o'qituvchi-tarbiyachilarning ilmiy-pedagogik faoliyatlarini tekshirish, tegishli chora-tadbirlar belgilash maqsadida o'tkaziladi.

Eksperiment-tajriba sinov metodi

"Eksperiment" so'zi lotincha "sinab ko'rish", "tajriba qilib ko'rish" degan m a'noni anglatadi. Odatda, eksperimental-tajriba ishlari ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda ham ilmiy farazlarning didaktik yoki amaliy ahamiyatiga e'tibor beriladi. O'tkaziladigan tajriba ishlari ta'lim va tarbiya o'rtasidagi qonuniy aloqalarni aniqlash, natijalarni hisobga olish asosida yangi metodlarni tatbiq etishga, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratiladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining borishini, tuzilishi va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatini beradi.

Eksperiment metodi sharoitga qarab 3 xilda o'tkaziladi:

- 1) tabiiy eksperiment;
- 2) laboratoriya eksperimenti;
- 3) amaliy tajriba.



Pedagogik eksperiment o'z mazmuniga ko'ra didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik muammolari yuzasidan o'tkaziladi. Pedagogik eksperiment tajriba ishlarini o'tkazishda quyidagi talablar q o'yiladi:

- 1) ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'Mgan natija uchun reja belgilash;
- 2) ilmiy ish yoki pedagogik faoliyat uchun aniq obyekt belgilash, amalga oshirish borasida qo'shimcha metodlarni aniqlash;
- 3) tajriba ishi o'tkazish vaqtini va muddatini belgilash;
- 4) tajriba uchun lozim bo'Mgan asbob-uskuna va boshqa hokazolarning tayyor turishi;
- 5) eksperiment natijalarini zudlik bilan tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish hamda tavsiyalar berish kerak.

Tarbiyaviy metodik imkoniyatlar

Kimyo ta'limida ekologik tarbiya, xavfsizlik madaniyati, mehnatsevarlik va mas'uliyat kabi sifatlarni tarbiyalash imkoniyati mavjud. Xavfsizlik va iqtisodiylik – qimmat reagentlardan foydalanishni kamaytiradi, xavfli tajribalarni virtual muhitda bajarish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kimyo biologiya, fizika, ekologiya va geografiya bilan uzviy bog'liq. Shu bois, fanlararo integratsiya ta'lim jarayonini boyitadi va o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash imkoniyati

Virtual laboratoriyalar, 3D-modellar, elektron darsliklar va interaktiv taqdimotlar kimyo o'qitishda samarali qo'llaniladi. Bu esa ta'limni zamonaviy va qiziqarli qiladi. Shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, tajribalarni bajarishda diqqat, aniqlik, mas'uliyat, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kabi fazilatlar shakllanadi.

Ijtimoiy va ekologik tarbiya berishi

Kimyo darslarida atrof-muhit muhofazasi, chiqindilardan to'g'ri foydalanish, kimyoviy moddalarni xavfsiz saqlash va qo'llash masalalari o'rganiladi. Bu o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantiradi. Psixologik afzalliklar – o'quvchilar fanga qiziqadi, motivatsiya ortadi. Kimyo ta'limida psixologik afzalliklar – bu fan o'qitilishi jarayonida o'quvchilarning psixik rivojlanishi, tafakkuri, motivatsiyasi va shaxsiy sifatlarga ijobiy ta'sir etuvchi jihatlardir. Kimyo fanining o'ziga xos xususiyatlari tufayli u nafaqat bilim beribgina qolmay, balki o'quvchilarning psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Asosiy psixologik afzalliklari:

- Qiziqish va motivatsiyani oshirishi, tajribalar, kutilmagan natijalar va rang-barang reaksiyalar o'quvchilarda fanga nisbatan tabiiy qiziqish uyg'otadi. Amaliyot bilan bog'liq bo'lgani uchun kimyo bilimlari hayotiy ehtiyojlarga mos keladi va motivatsiyani kuchaytiradi.
- Ijodiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishi, reaksiya tenglamalarini tuzish, masalalarni hal qilish o'quvchilarda tahliliy va mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Tajribalarni kuzatib, xulosalar chiqarish esa ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.
- Kuzatuvchanlik va diqqatni shakllantirishi. Kimyo tajribalarini bajarishda o'quvchi diqqatini jamlashi kerak bo'ladi. Nozik o'zgarishlarni sezish (rang, hid, qaynash harorati) kuzatuvchanlik qobiliyatini kuchaytiradi.
- Muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmasi. Kimyo masalalari va tajribalari ko'pincha muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchi mustaqil fikrlab, to'g'ri qaror qabul qilishni o'rganadi. Hissiy-emotsional rivojlantirish, rangli reaksiyalar, yorqin tajribalar, portlash yoki gaz ajralishi kabi hodisalar o'quvchilarda hayrat, quvonch va qoniqlik hissinu uyg'otadi. Bu esa o'qishga ijobiy emosional munosabatni shakllantiradi.

O'z-o'ziga ishonchni oshirishi

Tajribalarni muvaffaqiyatli bajarish, masalalarni yechish o'quvchilarda o'z qobiliyatlariga ishonchni kuchaytiradi. Bu esa psixologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Hamkorlik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishi

Guruhli tajribalar, laboratoriya ishlari jarayonida o'quvchilar o'zaro yordam berishadi, jamoada ishlashni o'rganishadi.



Stressni boshqarish va mas'uliyatni shakllantirish

Tajribalar xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etishni talab qiladi. Bu esa o'quvchilarda mas'uliyat hissini va o'zini tuta bilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

- Metodik afzalliklar – o'qituvchiga dars jarayonini nazorat qilish va individual yondashuv imkonini beradi.
- Kimyo ta'limida metodik afzalliklar – bu fan o'qitilishi jarayonida qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlar, o'quv-metodik vositalar va didaktik metodlarning samaradorligini oshiruvchi, ta'limni oson va samarali qilishga xizmat qiluvchi jihatlardir.

Kimyo ta'limining asosiy metodik afzalliklari: Fanlararo integratsiya imkoniyati

Kimyo biologiya, fizika, geografiya, ekologiya va texnologiya fanlari bilan uzviy bog'liq holda o'qitilishi mumkin. Bu metodik yondashuv o'quvchilarda kompleks bilim va tizimli dunyoqarashni shakllantiradi. Ko'rgazmalilik va tajribaviylik tamoyili, kimyo ta'limida laboratoriya ishlari, tajribalar, modellar va maketlardan keng foydalanish mumkin. Vizual va amaliy metodlar yordamida mavzular osonroq tushuniladi.

Nazariya va amaliyot uyg'unligi

Kimyo fani nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan mustahkamlash imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va ularni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Eksperiment asosida o'qitish

Kimyo ta'limida tajribalar orqali bilim berish asosiy metodlardan biridir. Eksperiment o'quvchilarni qiziqitiradi, ularning mustaqil izlanish va kuzatish qobiliyatini shakllantiradi.

Fanlararo integratsiya imkoniyati

Kimyo biologiya, fizika, ekologiya, tibbiyot, texnika va boshqa ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq. Shu bois u fanlararo yondashuvni kuchaytiradi va keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Tahliliy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish

Kimyo ta'limi o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat aloqalarini tushunish va muammolarga ilmiy yondashishga o'rgatadi.

Nazariy bilimlarni hayotiy voqealar bilan bog'lash

Kundalik hayotda uchraydigan ko'plab jarayonlar (ovqat pishirish, dori-darmonlar, tozalash vositalari, yonish jarayonlari va boshqalar) kimyoviy bilimlar asosida tushuntiriladi. Bu o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyati

Kimyo fanini o'qitishda virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, AKT vositalaridan foydalanish mumkin. Bu usullar dars samaradorligini oshiradi. Virtual laboratoriyalardan foydalanish o'quvchi tasavvurini boyitadi va laboratoriya ishini ongli ravishda qo'lida bajarib ko'radi.

Ijodiy va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish

Kimyo darslarida o'quvchilar yangi tajribalar o'tkazishi, natijalarni tahlil qilishi, o'z xulosalarini chiqarishi mumkin. Bu esa ularni izlanishga, ilmiy yondashuvga va kreativ fikrlashga yo'naltiradi.

Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish

Laboratoriya ishlari orqali o'quvchilar moddalarni o'lchash, aralashtirish, kuzatish, natijalarni qayd etish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rganadi.

Interfaol metodlardan samarali foydalanish "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Debat", "Rol o'ynash" kabi metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faol ishtiroki ta'minlanadi. Masalalar va topshiriqlar tizimining boyligi

Kimyo fanida nazariy va amaliy masalalar, hisob-kitoblar, tajriba asosidagi topshiriqlar o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash imkoniyati

Virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, animatsiyalar va simulyatsiyalar ta'lim jarayonida o'quvchilarni qiziqitiradi va bilimlarni mustahkamlaydi.



Muammoli ta'limni amalga oshirish qulayligi

1. Muammoli vaziyatni yaratish usullari:

- Savol asosida – o'quvchilarga javobi tayyor bo'lmagan, izlanishni talab qiladigan savol berish.
- Amaliy vaziyat – kundalik hayotdagi muammoli holatni keltirib, uni ilmiy bilimlar yordamida yechishga undash.
- Qarama-qarshilik asosida – avvalgi bilimlar bilan yangi ma'lumot o'rtasidagi tafovutni ko'rsatish.
- Xatolik asosida – ataylab noto'g'ri yechim yoki fikrni taklif qilib, o'quvchilardan uni to'g'rilashni talab qilish.
- Tajriba asosida – amaliy tajriba o'tkazish orqali kutilmagan natija yaratib, uning sababini izohlashni so'rash.

2. Muammoli vaziyatni yechish bosqichlari:

- Muammoni anglash – o'quvchi vaziyatdagi qiyinchilikni tushunib oladi.
- Taxmin qilish (faraz qo'yish) – muammoni yechish uchun ehtimoliy g'oyalar ilgari suriladi.
- Dalillarni tahlil qilish – mavjud bilimlar va faktlar asosida taxminlar tekshiriladi.
- Yechim topish – muammo mantiqiy, ilmiy yoki amaliy yo'l bilan hal qilinadi.
- Natijani umumlashtirish – o'quvchi o'zlashtirgan yangi bilim yoki xulosani mustahkamlaydi.

Kimyo darslarida muammoli savollar va vaziyatlar yaratish mumkin (masalan, "Nega bu reaksiya sodir bo'ladi?", "Qaysi sharoitda natija o'zgaradi?"). Bu metodik yondashuv o'quvchilarda tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kimyo ta'limiga jadal kirib kelishi o'quv jarayonining sifatini oshirishda muhim omilga aylandi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, AKT vositalari – virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, elektron darsliklar, multimedia materiallari va raqamli platformalar – kimyo fanining murakkab va abstrakt tushunchalarini osonroq, aniqroq va vizual shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning tushunish darajasini chuqurlashtiradi, o'quv motivatsiyasini oshiradi va fanga qiziqishni kuchaytiradi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda mustaqil izlanish, ilmiy tahlil, tajriba natijalarini qayta ishlash, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi zarur kompetensiyalarni shakllantiradi. Virtual laboratoriyalar esa kimyoviy reaksiyalarni xavfsiz sharoitda, kam xarajat bilan va istalgancha takrorlash imkoniyatiga ega bo'lgani uchun an'anaviy tajribalarni samarali to'ldiradi.

Xulosa qilib aytganda, AKT kimyo ta'limining zamonaviy modelini yaratishda asosiy omillardan biri bo'lib, o'quv jarayonining interaktivligi va samaradorligini ta'minlaydi. Raqamli resurslarning to'g'ri tanlanishi va metodik jihatdan maqsadga muvofiq qo'llanishi kelajakda kimyo ta'limi sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kimyo o'qitish metodikasi. N. Raxmatullayev, H. Omonov, Sh. Mirkomilov Toshkent "Iqtisod moliya" 2013, 14-bet
2. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.
3. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Pedagogical skill-Bukhara, 5.
4. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.
5. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.
6. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari. Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi.
7. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.